



ZULFIYA IJODIDA O'XSHATISHLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Tovmurodova Zulfiya

Samarqand davlat pedagogika instituti talabasi

Normo'minov Sh.T.

Ilmiy rahbar

ANNOTASIYA

Ushbu maqolada O'zbekiston xalq shoiri Zulfiya ijodida o'xshatishlar (tasviriy vosita sifatida)ning qo'llanishi, ularning lingvopoetik tabiatini ochib berish masalalari yoritiladi. Shoir badiiy tilining o'ziga xosligi, o'xshatishlarning emotsional-ekspressiv vazifasi, matnning ma'no qatlamlarini boyitishdagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqotda Zulfiya she'riyati namunalari asosida o'xshatishlarning tuzilishi, semantik guruhlar hamda estetik funksiyasi ilmiy asosda sharhlanadi. Mazkur maqolada Zulfiya she'riyatidagi o'xshatishlarning tuzilishi, semantik ko'lami, emotsional-ekspressiv vazifasi hamda lingvopoetik o'ziga xosligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shoir poetikasining chuqur qatlamlarini anglashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *Zulfiya, o'xshatish, lingvopoetika, badiiy tasvir, she'riyat, obrazlilik, ekspressivlik.*

ANNOTATION

This article examines the use of similes in the works of the Uzbek national poet Zulfiya, focusing on their linguistic and poetic characteristics. It analyzes the uniqueness of the poet's artistic language, the emotional and expressive function of similes, and their role in enriching the semantic layers of the text. Based on examples from Zulfiya's poetry, the study explains the structural types, semantic groups, and aesthetic functions of similes from a scholarly perspective. This article analyzes the structure, semantic scope, emotional-expressive function, and linguopoetic specificity of similes in Zulfiya's poetry. The results of the research serve to understand the deeper layers of the poet's poetics.

Keywords: *Zulfiya, simile, linguopoetics, artistic imagery, poetry, figurativeness, expressiveness.*

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются особенности употребления сравнения в творчестве Народной поэтессы Узбекистана Зульфийи, а также раскрывается их лингвопоэтическая природа. Анализируется своеобразие художественного языка поэтессы, эмоционально-экспрессивная функция сравнений и их роль в обогащении смысловых слоев текста. На основе примеров из поэзии Зульфийи научно обоснованно описываются структурные типы, семантические группы и



эстетические функции сравнений. В статье анализируются структура, семантический объём, эмоционально-экспрессивная функция и лингвопоэтическая специфика сравнений в поэзии Зулфия. Результаты исследования способствуют пониманию глубинных пластов поэтики поэта.

Ключевые слова: *Зулфия, сравнение, лингвопоэтика, художественный образ, поэзия, образность, экспрессивность.*

Zulfiya — XX asr o‘zbek adabiyotining yorqin vakillaridan biri bo‘lib, uning she‘riy merosi o‘zining badiiy teranligi, ma‘naviy pokligi va musiqiy ohangdorligi bilan ajralib turadi. Shoiraning poetik dunyoqarashi, avvalo, badiiy tasvir vositalari orqali namoyon bo‘ladi. Shulardan eng faol va ta’sirchanlaridan biri — **o‘xshatishlar**dir. O‘xshatish san’ati she‘riy matnda obraz yaratish, his-tuyg‘ularni kuchaytirish, mazmunni rang-barang ifodalashda muhim o‘rin tutadi.

Zulfiya ijodida o‘xshatishlar nafaqat poetik bezak sifatida, balki shoiraning estetik idealini ochib beruvchi lingvopoetik hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Shoir o‘xshatish orqali tabiat, inson, tuyg‘u va ruhiy holatlarni o‘ziga xos tarzda ifodalaydi; tasvirning badiiy dinamikasini kuchaytiradi, matnning semantik maydonini kengaytiradi.

O‘xshatishlar nutqda sezilarli darajada katta badiiy-uslubiy va lingvopoetik imkoniyatlarga ega bo‘lgan konstruksiyalar sanaladi. Shuning uchun ham o‘xshatishlar dunyo filologiya ilmida eng qadimgi davrlardan boshlab nutq ta’sirchanligini ta’minlaydigan alohida vosita sifatida turli tadqiqotchilarning diqqat markazida bo‘lib kelgan.

Avvalo, ta’kidlash lozimki, o‘xshatishlar o‘ziga xos obrazli tafakkur tarzining maxsuli sifatida yuzaga keladi. Shuning uchun ham ular nutqda hamisha badiiy-estetik qimmatga molik bo‘ladi, nutqning emotsional-ekspressivligi, ifodaliligi, ta’sirchanligini ta’minlashga xizmat qiladi. O‘xshatishlarning ikki turi, ya’ni: 1) individual-muallif o‘xshatishlari yoki erkin o‘xshatishlar va 2) umumxalq yoki turg‘un (doimiy) o‘xshatishlar farqlanadi.

Tildagi o‘xshatishlarni tadqiq etgan tilshunoslarning aksariyati turg‘un o‘xshatishlarning idiomalarga yaqin turishini yoki idioma maqomida bo‘lishini, ular ko‘p asrlar mobaynida kishilar nutqida qo‘llanish natijasi sifatida turg‘unlashib, so‘zlovchilar ongida muayyan modellar shaklida mustahkamlanib qolishini, o‘xshatish etalonining, ya’ni o‘xshatish asosidagi obrazning muayyan belgi-predmet bilan muntazam va qat’iy bog‘liq bo‘lishini ta’kidlaydilar.

Zulfiya she’rlarida o‘xshatishlar alohida o‘rin tutadi. Ta’kidlash lozimki, bu o‘xshatishlarning har biri hayotsevar, tabiat oshig‘i bo‘lgan Zulfiyaning kuzatuvchanligiga, tabiat va insonning murakkab hayotini ipidan ignasigacha, butun ikir-chikirlarigacha ko‘ra va ko‘rsata olishiga, borliqni o‘ziga xos yo‘sinda, «Zulfiyaona» idrok qilishiga xolis va xarakterli dalillar sanaladi. Chunki o‘xshatishlar she’riyatda xilma-xil maqsadlar bilan qo‘llansa-da, ularning sifati, ayni maqsadlarga qay darajada



bo'ysundirilishi, qisqasi, ularning poetik mazmun darajasi shoirning kuzatuvchanligiga, poetik idrokiga bevosita bog'liqdir. Aytish lozimki, har qanday o'xshatishning lingvopoetik asosini o'xshatish etaloni tashkil qiladi. O'xshatishning poetik qimmatini ham ana shu o'xshatish etaloni belgilaydi. Zulfiyaning she'rlarini o'qiganda, shu narsaga to'liq ishonch hosil qilamiz. Zulfiya o'z she'rlarida o'xshatish etaloni bo'ladigan voqea-hodisalarni to'liq va aniq tasavvur qilgan, shuning uchun ham u o'xshatishga murojaat qilar ekan, zukko kuzatuvchi sifatida behad muvofiq va yangi o'xshatish etalonlarini qo'llashga intiladi.

Zulfiya umri davomida juda barakali ijod qildi. U o'z she'rlarida hayotni, tevarakatofida yuz berayotgan voqea-hodisalarni qalamga oladi. Masalan, **“Men o'tgan umrga”** she'rida shoira o'z hayotini sarhisob qilar ekan, o'tgan umriga achinmasligini aytadi. Chunki u bir umr pok qalbi bilan yashaydi. “Hech kimda ko'rmayin umrimga o'xshash” misrasi orqali dunyodan bevaqt ko'z yumgan turmush o'rtog'ini, bu yo'qotishdan qolgan qalbidagi yarani ifodalaydi.

Yuqorida tahlil qilingan she'rida shoira turmush o'rtog'idan ayrilganiga ishora qilsa, **“Kechir, qoldim g'aflatda”** she'rida qalbidagi ayriliqdan qolgan og'riqlarni bayon qiladi. Suyukli yorini jonsiz ko'rib o'zini yo'qotib qo'yadi. Agar o'sha damda yonida bo'lganida o'z jonini berishga ham tayyor edi. “Koshki edi, so'ng qo'lingda Erkanib bersam jon” deydi.

Kuzatishlar shundan dalolat beradiki, shoir Zulfiya o'z she'rlarida sevgi, kuygan qalb, chechak, gul, bahor, alam, nola kabi so'zlarni o'xshatish etaloni sifatida juda faol qo'llaydi. Bu shoirning insonga va tabiatga bo'lgan cheksiz muhabbatini, bu muhabbatni yuksak ohanglarda kuylaganligini, inson va tabiat tasviri uchun tabiatning o'zidan betinim rang va ohangoar izlaganligini yaqqol namoyon etadi.[7,56]

Zulfiya ba'zan shunday o'xshatish etalonlarini topadiki, ular tasvir aniqligi va obrazligini ta'minlash bilan bir paytda yengil yumoristik ohangning chiroyli ifodasi uchun ham xizmat qiladi. Masalan:

.... Ko'z ochgani qo'ymaydi alam,
Boshim qo'ysam, kuydirar bolish,
Yupatolmas kitob va qalam,
Misralarim ko'tarar nolish. [1.65]

(“Ne baloga etding muhtalo”).

Yuqorida keltirilgan she'riy parchada ikkita o'xshatish etaloni - Boshim qo'ysam, kuydirar bolish - qo'llangan bo'lib, ulardan, ayniqsa, birinchisi alohida diqqatga sazovor, chunki olovga nisbat berilgan. Tabiiyki, bu kutilmagan tashqi o'xshashlik Kishida chuqur o'yga toldiradi. Bu chiroyli va ohorli o'xshatish faqat tasvir aniqligi uchungina emas, balki estetik fon ifodasi uchun ham xolis xizmat qilgan. Ana shu o'xshatishning lingvopoetik mexanizmi va formal hajmi boshqa o'xshatishlardan mutlaqo farq qilmasa-da, shoirning mahorati bilan u polifunksional vositaga aylangan, aytish mumkinki, bu o'xshatish matn tarkibida yana ham «ishchan» xususiyatga ega



bo'lgan. She'ning ushbu misralarida shoira o'z dardi, alamlarini ochiq-oydin aytadi. Uni "kitob va qalam", ya'ni ijod ham yupatolmaydi, hatto misralarida ham yuragidagi bitmas jarohatlarni ifodalaydi. She'r o'ta samimiy ruhda yozilgan. Shuning uchun ham uni o'qigan kitobxon tezda ta'sirlanadi, shoiraning dardiga hamdard bo'ladi.

Xullas, Zulfiya she'riyatida o'xshatishlar lingvistik mohiyati jihatidan biron-bir alohida, juda farqli xususiyatga ega bo'lmasa-da, poetik jihatdan o'ziga xos va betakrordir. Zulfiya she'riyatidagi har bir o'xshatish kuzatuvchan shoirning o'tkir nigohi, nafis va vazmin mushohadasining mahsuli sanaladi. Zulfiya she'riyatidagi o'xshatishlarning lingvopoetikasi kelgusida yana ham mufassal, yana ham chuqurroq o'rganilmog'i lozim. Chunki Zulfiyaning o'xshatishlari yosh ijodkorlar uchun benihoya ibratli va saboq bo'larlidir. Umuman olganda, Zulfiya o'xshatishlardan — inson tuyg'ularini tabiat hodisalari, iztirob, sezgi va predmetlar bilan qiyoslash orqali — o'ziga xos poetik umumlashmalar yaratadi. Shoiraning o'xshatishlari oddiy tasvir emas, balki badiiy-estetik ma'noga ega lingvopoetik hodisa bo'lib, ular matnning obrazlilik darajasini oshiradi, semantik qatlamlarga o'zgacha mazmun beradi, o'quvchini ruhiy-estetik tajriba sari yetaklaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Zulfiya. "Bahor keldi seni so'roqlab", (Yangi asr avlodi), Toshkent, 2019
2. Шомақсудов А., Расулов И., Кўнғуров Р., Рустамов Х. Ўзбек тили стилистикаси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1983. -248 б.
3. Маҳмудов Н. Тилимизнинг тилла сандиғи. –Тошкент: Гафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи, 2012. – 152 б.
4. Қиличев Э. Бадий тасвирнинг лексик воситалари. – Тошкент: Фан, 1982. – 88 б.
5. Кўнғуров Р. Ўзбек тилининг тасвирий воситалари. – Тошкент: Фан, 1977. – 152 б.
6. Кўчқортоев И. Бадий нутқ стилистикаси. – Тошкент: ТошДУ нашри, 1975. – 96 б.
7. Йўлдошев Б. "Тилнинг ижтимоий моҳияти (бадий ва публицистик матнларда тил бирликларининг ижтимоий хосланиши)" ихтисослик фанидан услубий қўлланма. – Самарқанд: СамДУ нашри, 2012. – 164 б.

